

BOG‘LANGAN QO‘SHMA GAPLAR

Mirzaxonova Zilola Mansurbek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy tilshunoslikda qo‘shma gap turlaridan biri bo‘lgan bog‘langan qo‘shma gaplar va boglangan qo‘shma gaplarni boglashda ishtirol etuvchi vositalar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: qo‘shma gaplar, bog‘langan, o‘zbek tili, tilshunoslik, sintaksis, bog‘lovchilar, tobelanish.

Abstract: In this article, one of the types of conjunctions in general linguistics, connected clauses, and the tools involved in connecting connected clauses are discussed.

Key words: conjunctions, linked, Uzbek language, linguistics, syntax, connectors, subordination.

KIRISH.

Bugungi kunda kechayotgan globallashuv jarayonlari tilahunoslikning har bir bo‘limi tadqiqotlarning naqadar zarurligini isbotlab qo‘ydi. O‘zbekiston Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomi va nufuzini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni o‘zbek tilining davlat tili sifatida qaddini ro‘y-rost tiklashini, ijtimoiy maqomining yana-da barqarorlashuvini ta’minladi. Ana shu farmonning amaliy ifodasi sifatida Vazirlar Mahkamasining qarori bilan O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutida sotsiolingvistika bo‘limining tashkil etilishi esa davlat tili va jamiyat munosabatlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan tadqiqotlar kengayishi va kuchayishini ta’minladi¹.

¹ Yorqinjon O Til va jamiyatning o‘zaro munosabati Fan-16 Oktabr 2020-yil

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O‘zbek tilida qo‘shma gaplar tadqiqiga bag‘ishlangan ish olib borgan olimlar sifatida G. Abdurahmonovning ishini ko‘rsatishimiz lozimdir. Jumladan, olim qo‘shma gaplarni mazmun jihatdan quyidagi guruhlarga bo‘lib chiqadi: aniqlovchi, ega, kesim, payt, o‘rin, sabab, shart, maqsad, to‘siksiz, natija, ravish, qiyoslash ergash gapli qo‘shma gaplar. O‘z navbatida, qiyoslash ergash gapli qo‘shma gaplar uchga bo‘linadi: chog‘ishtirish, o‘xshatish, miqdor-daraja ergash gapli qo‘shma gaplar. G. Abdurahmonov qo‘shma gaplarning 15 turini izohlaydi¹. Bundan tashqari doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilgan va yetuk tilshunoslar sifatida tan olingan V.V.Reshetov, G.G.Ulomov, G.Abduraxmonov, F.Abdullaev, M.Asqarova, O.Azizov, S.Usmonov, Sh.Shoabdurahmonov, M.Mirzaev, S.Ibrohimov, S.Mutallibov, A.Hojiev, A.Rustamov va Sh.Rahmatullaev kabi olimlar ham tilshunosligimizga oid muhim tadqiqotlar olib borganlar.

MUHOKAMA

Teng bog‘lovchilar orqali birikkan biri ikkinchisiga grammatik jihatdan tobe bo‘lmagan, teng huquqli predikativ qismlardan tashkil topgan shaklan mustaqil mazmunan o‘zaro bog‘langan gaplardan shakllangan qo‘shma gap bog‘langan qo‘shma gap sanaladi. Bunday qo‘shma gap qismlarining bir-biriga bog‘liqligi ularning tuzilishida, kesimlarining semantik va grammatik munosabatda, umumiyligi bo‘laklarining mavjudligida ham ko‘rinadi. Shuning uchun ham bog‘langan qo‘shma gap, qancha gaplardan tashkil topmasin, yaxlit yagona bir qurilmani tashkil qiladi. Bog‘langan qo‘shma gap tarkibidagi gaplar bir-biriga biriktiruv, chog‘ishtiruv, ayiruv, zidlov munosabatlarini ifodalovchi teng bog‘lovchilar va bog‘lovchi vazifasida keluvchi –da, -u (-yu) yuklamalari orqali birikadi. Bog‘langan qo‘shma gaplarda birinchi gap, odatda, erkin holda tuzilgan bo‘ladi, keyingi gap esa bog‘langan qo‘shma gap komponentlari orasidagi munosabatga bog‘liq holda shakllanadi. Shuning uchun ham bog‘langan qo‘shma gap bilan ergash gapli qo‘shma gaplar orasida grammatik, intonatsion farqlar mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

¹ Абдураҳмонов Ф. Қўшма гаплар классификацияси // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. —1980.No 4

1. Bog‘langan qo‘shma gaplarda sodda gaplarni biriktirish uchun teng bog‘lovchilar qo‘llanadi. Ergash gapli qo‘shma gaplarda esa tobe bog‘lovchi va nisbiy so‘zlar (kim, nima, qanday, shunday) qo‘llanadi.

2. Bog‘langan qo‘shma gapni tashkil etgan sodda gaplarning kesimlari har vaqt ma’lum shaxs, zamon ko‘rsatuvchi mustaqil shaklda bo‘ladi. Ergash gapli qo‘shma gap kesimlari esa ravishdosh, sifatdosh, shart fe’li orqali ifodalangan tobe shaklda bo‘ladi.

3. Bog‘langan qo‘shma gapda sanash, qiyoslash intonatsiyasi bo‘lsa, ergash gapli qo‘shma gaplarda tobelantiruvchi yoki izoh intonatsiyasi bo‘ladi. Bog‘langan qo‘shma gap qismlarining o‘zaro aloqasi quyidagi mazmun munosabatlari ifodalanadi:

1. Qiyolash munosabati.
2. Biriktiruv munosabati.
3. Ayiruv munosabati.
4. Sabab va natija munosabati.
5. Izohlash munosabati.

Har qanday grammatik shakl, shu jumladan bog‘langan qo‘shma gaplarning grammatik shakli ikki xil ma’noga – umumiy va xususiy grammatik ma’noga ega. Biriktiruvchi bog‘lovchilar umumiylit vazifasini, ergashtiruvchi bog‘lovchilar xususiylik vazifasini bajaradi. Biriktiruvchi, ayiruvchi bog‘lovchilari orqali shakllangan bog‘langan qo‘shma gaplarda ochiq strukturali qo‘shma gaplardir. Zidlov bog‘lovchilar, bo‘lsa, esa so‘zlari, faqat bog‘lovchisi, -u(-yu) yuklamalari yordamida shakllangan bog‘langan qo‘shma gaplar yopiq strukturali qo‘shma gaplardir. Ba’zan bog‘langan qo‘shma gaplarda –b (-ib) ravishdosh va –sa shart fe’li shakli grammatik shakl sifatida ishtirok etadi. Bunday qo‘shma gaplarning ham strukturasi yopiq struktura hisoblanadi. Qiyoslash munosabatini ifodalagan qo‘shma gapni tashkil etgan sodda gaplarning intonatsiyasi bir xil bo‘lmaydi. Bunda qo‘shma gapning birinchi qismi ko‘tarilgan intonatsiya bilan, ikkinchi qismi esa pasaygan intonatsiya bilan talaffuz etiladi; har ikki qism o‘rtasida ancha sezilarli pauza bo‘ladi. Qo‘shma gap tarkibidagi qiyoslanayotgan bo‘laklarga kuchli mantiqiy urg‘u tushadi. Bu urg‘u bo‘lsa, esa fe’llari yordamida tuzilgan qo‘shma gaplarda kuchli bo‘ladi: Otabek

dahshatlanib yonidigagi Aliga qaradi, Ali esa labini tishlab turar edi. (A.Q.) Qiyo slash mazmun munosabatini ifodalovchi bog‘langan qo‘shma gaplar zidlash, qiyoslash, izohlash kabi turli ma’no ottenkalarini ro‘yobga chiqaradi. Qo‘shma gap qismlarining umumiy mazmun yoki gaplar tarkibidagi ayrim bo‘laklar biror tomondan bir-biriga zid qo‘yiladi. Zidlash munosabatini ifodalovchi qo‘shma gap qimlari asosan ammo, lekin, biroq bog‘lovchilari orqali birikadi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ushbu tadqiqot qo‘shma gaplarni o‘rganish orqali o‘zbek tilshunosligida mavjud bilimlar to‘plamiga hissa qo‘shadi. Bundan tashqari, o‘xshashlik va farqlarni aniqlash uchun o‘zbek qo‘shma gaplari bilan boshqa turkiy tillardagi gaplar o‘rtasida qiyosiy tadqiqotlar o‘tkazish foydali bo‘ladi. Bu turkiy tillar oilasidagi qo‘shma gaplarning tipologik jihatlari to‘g‘risida kengroq istiqbolni beradi

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sayfullayeva.R, Mengliyev B, va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili-T: Fan va texnologiya ,2009,395-397 bet
2. Nurmanova D.A. “Hozirgi o‘zbek tili” ma’ruza matni -Andijon,2017
3. Yorqinjon O Til va jamiyatning o‘zaro munosabati Fan-16 Oktabr 2020-yil
4. Arabboyeva M. A. “Ona tili darslari orqali o‘quvchilarning ijtimoiy – emotsiyal-fuqarolik kompotensiylarini rivojlantirish” Zamonaviy ta’lim. Toshkent 2022/ 12 43-47
5. Arabboyeva Mahfuzha Akramjonovna “Ona tili darslarini milliy dastur talablari asosida tashkil etish dolzarb pedagogik muammo sifatida” Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. 2023/7 718-725